



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafayev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abdusalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадирова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	



O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Sattorov Ixtiyor Ochilovich

O'zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni
belgilash oliy maktabi xodimi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li

Oliy maktab tinglovchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda islom moliyasining rivojlanish istiqbollari, sohadagi huquqiy-normativ hujjatlarning tahlili hamda xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilgan. Shuningdek, islom moliyasining mamlakat moliya bozoriga kirib kelishi va bosqichma-bosqich rivojlanishi jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar bilan birga mavjud imkoniyatlar ham muhokama qilingan. Maqolada kelgusida islom moliyasini barqaror rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ham keltiriladi.

Kalit so'zlar: islom banki, islomiy moliyalashtirish, murobaha, mudoraba, ijara, sukuk, salam, takaful.

Abstract. This article explores the prospects for the development of Islamic finance in Uzbekistan, provides an analysis of legal and regulatory documents in the field, and reviews the experience of foreign countries. It further discusses both the challenges and opportunities emerging during the introduction and gradual expansion of Islamic finance in the financial market of Uzbekistan. Moreover, the article outlines scientifically grounded recommendations necessary for the sustainable development of Islamic finance in the future.

Key words: Islamic bank, Islamic financing, Murabaha, Mudaraba, Ijara, Sukuk, Salam, Takaful.

Аннотация. В данной статье изучаются перспективы развития исламских финансов в Узбекистане, анализируются нормативно-правовые документы в этой сфере, а также рассматривается опыт зарубежных стран. Кроме того, обсуждаются актуальные проблемы и потенциальные возможности, возникающие в процессе проникновения и поэтапного развития исламских финансов на финансовом рынке Узбекистана. В статье также приводятся научно обоснованные рекомендации, необходимые для дальнейшего развития исламских финансов.

Ключевые слова: исламский банк, исламское финансирование, мурабаха, мударба, иджара, сукук, салам, такафул.

KIRISH

Bugungi kunda islom moliyasi dunyo miqyosida jadal rivojlanayotgan hamda an'anaviy moliya tizimiga muqobil yondashuv sifatida qaralayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. An'anaviy moliya tizimida foyda asosan foiz evaziga shakllansa, islomiy moliyada moliyaviy munosabatlar sherikchilik tamoyillariga asoslanadi.

Islom moliyasi — bu moliyaviy faoliyat, bank operatsiyalari va investitsion instrumentlar majmui bo'lib, ular islom huquqi (shariat) tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu tizimning asosiy xususiyati "ribo" (foiz) ning qat'iy taqiqlanishi, moliyaviy bitimlarda maysir (ortiqcha tavakkalchilik) va g'arar (noaniqlik) elementlariga yo'l qo'yilmasligi, iqtisodiy faoliyatning real aktivlarga asoslanishi, mulkka egalik va risklarni adolatli taqsimlash tamoyillariga amal qilinishidir.

Islom moliyasida sarmoyadorlarning mablag'lari ishonch va sherikchilik asosida boshqarilib, ushbu resurslar jismoniy va yuridik shaxslarning turli tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi va real iqtisodiy faoliyat orqali foyda shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'zining parlamentga qilgan murojaatnomasida: "Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning huquqiy asoslarini yaratish vaqti keldi. Bu jarayonga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb qilinadi" — deb ta'kidlagan [1].



Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son¹ “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risidagi Farmonida “kamida uchta tijorat bankida islom moliyasi mezonlari va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish” ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bundan tashqari, davlat rahbarining 2024-yil 20-avgust kuni mamlakat tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqida, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash yo'nalishida moliyaviy resurslarni kengaytirishning muhim omillaridan biri sifatida islom moliyasini rivojlantirishga alohida urg'u berilgan. Bu esa mazkur sohaning bugungi kunda yuqori darajada dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Islom moliyasi bo'yicha xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar tahlili ushbu yo'nalishning global miqyosda jadal rivojlanib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, ICD–LSEG (2025) tomonidan e'lon qilingan Islamic Finance Development Report ma'lumotlarida islom moliyasi aktivlarining yillik o'sish sur'ati 20 foizdan oshgani, bozor hajmi esa 6 trillion AQSh dollariga yaqinlashgani qayd etiladi. Xalqaro adabiyotlarda islom moliyasining asosiy tamoyillari – ribo (foiz)ning taqiqlanishi, risk va foydaning adolatli taqsimlanishi, real aktivlarga asoslangan moliyaviy bitimlar – iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy intizomni kuchaytiruvchi omillar sifatida baholanadi. A.AOIFI, IFSB, INCEIF kabi ilmiy maktablar islom moliyasini nafaqat bank tizimi, balki iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy mas'uliyatli modeli sifatida talqin qiladi. Xususan, Tursunov (2022) tomonidan sukuk instrumentlarining jahon amaliyoti, iqtisodiy afzalliklari va investitsion imkoniyatlariga oid tadqiqotlar ushbu yo'nalishda dolzarb nazariy asoslarni shakllantiradi.

Mintaqaviy tajriba nuqtayi nazaridan, Malayziya va Qozog'istonning islom moliyasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilgan dual bank tizimi, shariat kengashlari instituti, sukuk bozorini kengaytirish amaliyotlari O'zbekiston uchun o'rnak bo'luvchi modellardir. Mahalliy adabiyotlar – Prezident nutqlari, strategik farmonlar, Markaziy bank hujjatlari – mamlakatda islom moliyasini joriy etishga siyosiy iroda mavjudligini, normativ bazani takomillashtirish jarayoni boshlanganini ko'rsatadi. Sharipov (2025) tomonidan ta'kidlanganidek, O'zbekiston islom moliyasi bozorida mintaqaviy markazga aylanish salohiyatiga ega bo'lib, bu jarayon shariatga mos moliya mahsulotlariga bo'lgan ichki talabning yuqoriligi, xalqaro investorlar qiziqishi hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirish ehtiyojlari bilan izohlanadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar islom moliyasining iqtisodiy barqarorlik, investitsion jozibadorlik, shaffoflik va risklarni adolatli taqsimlash kabi jihatlarida ustunligini asoslab beradi. Shu bilan birga, adabiyotlarda huquqiy baza, kadrlar salohiyati, infratuzilma va shariatga muvofiqlik nazoratining takomillashtirilishi islom moliyasini joriy etishda hal qiluvchi omillar sifatida ta'kidlanadi. Mazkur ilmiy qarashlar ushbu maqolada ilgari surilgan xulosalar va tavsiyalar bilan uyg'un bo'lib, O'zbekistonda islom moliyasining barqaror rivojlanish istiqbollari uchun muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, SWOT tahlil hamda statistik ma'lumotlar tahlili usullaridan foydalanildi. Adabiyotlar tahlili doirasida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro moliya institutlari va tashkilotlarning hisobotlari chuqur o'rganildi.

Shuningdek, Institutsional islom moliyasi (Institutional & Financial Engineering School) hamda Islom rivojlanish va tadbirkorlik maktabi (Islamic Development and Entrepreneurship School) nazariyalarida ilgari surilgan yondashuvlar mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini tashkil etdi. Ushbu maktab vakillarining fikriga ko'ra, islom moliyasi nafaqat foizsiz banklar tizimi, balki iqtisodiy rivojlanishning barqaror va ijtimoiy mas'uliyatli modeli sifatida qaraladi.

Mazkur nazariy maktablar islom moliyasining real sektorni qo'llab-quvvatlashga, risk va foydani adolatli taqsimlashga, iqtisodiy jarayonlarda ijtimoiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiluvchi tizim ekanini ta'kidlab, uni g'arb moliya tizimining o'rnini bosuvchi emas, balki axloqiy tamoyillarga asoslangan parallel moliyaviy model sifatida talqin qiladilar.


TAHLIL VA NATIJALAR

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2023-yilgi “Global islom iqtisodiyoti holati” hisobotiga ko'ra, global islom moliyasi bozori 4,9 trillion AQSh dollariga baholangan bo'lib, 2027–2028-yillarga borib ushbu ko'rsatkichning 8 trillion AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. So'nggi uch yil davomida islom moliyasi sohasida yiliga o'rtacha 11–12 foizlik barqaror va intensiv o'sish kuzatilgani mazkur yo'nalishning global miqyosda tobora ommalashib borayotganini ko'rsatadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



Islom moliyasi sektorining tarkibiy tuzilmasida islomiy banklar yetakchi o'rin egallab, bozorning 70–73 foizini tashkil etadi [2]. Ushbu holat islomiy banklar nafaqat moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirayotganini, balki real sektorni qo'llab-quvvatlash, investitsion faoliyatni faollashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim drayver sifatida maydonga chiqayotganini ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Islom moliyasi aktivlarining davlatlar kesimida taqsimlanishi

Yuqoridagi 1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, islom moliyasi bugungi kunda 80 dan ortiq mamlakatlarda keng qo'llanilib, umumiy hisobda 3,9 trillion AQSh dollarlik aktivlarga ega. Turli manbalardan olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'yicha islomiy tamoyillarga muvofiq shakllangan aktivlarning qariyb 95 foizi atigi 10 ta davlat hissasiga to'g'ri keladi. Ulardan Saudiya Arabistoni va Eron 25–30 foizlik bozor ulushi bilan yetakchi o'rinlarni egallaydi. Keyingi o'rinlarda Malayziya (12 foiz), BAA (10 foiz), Quvayt va Qatar (5,5 foiz), Turkiya va Bahrayn (3,5 foiz), Indoneziya va Pokiston (2 foiz) joylashgan.


ICD (Islamic Corporation for the Development of Private Sector) va LSEG (London Stock Exchange Group) tomonidan e'lon qilingan Islamic Finance Development Report 2025 ma'lumotlariga ko'ra, jahon islom bank-moliya tizimining 2024-yil yakunlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lgan:

- umumiy aktivlar qiymati salkam 6 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan;
- aktivlarning yillik o'sish sur'ati 21 foizni tashkil etgan;
- islom moliya muassasalari soni 2255 taga yetgan [3].

Mazkur ko'rsatkichlar islom moliyasi global moliya bozorining istiqbolli va barqaror segmentlaridan biri sifatida kengayib borayotganini tasdiqlaydi (2-rasm).



ISLOM MOLIYASI AKTIVLARINING O'SISHI



2-rasm. Dunyo bo'yicha islom moliyasi aktivlarining yillar kesimida o'sishi

Islom banklari, ko'plab tadqiqotlarga ko'ra, an'anaviy banklarga nisbatan barqaror va iqtisodiy jihatdan chidamli tizim sifatida e'tirof etiladi. 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz islom moliya tizimining afzalliklarini yanada yaqqol namoyon etib, ushbu segment uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. 2008–2009-yillarda islom banklari aktivlari 12,6 foizdan 31,8 foizgacha sezilarli darajada o'sdi. 2016-yilga kelib esa umumiy aktivlar hajmi 1,88 trillion AQSh dollardan 2,1 trillion AQSh dollarga yetdi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda moliya sektorini modernizatsiya qilish va diversifikatsiya yo'nalishida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, islom moliyasi tizimini joriy etish ushbu islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Aholining 96 foizi islom diniga e'tiqod qilishi islomiy moliyaviy xizmatlarga ehtiyojning yuqori bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, islomiy banklarning tashkil etilishi xorijiy investitsiyalarni jalb etish, moliya bozorining diversifikatsiyasini kuchaytirish va moliyaviy ekotizimning imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Islom banklarining asosiy faoliyati loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan bo'lib, ular foydani real iqtisodiy operatsiyalar asosida shakllantiradi. An'anaviy banklarda omonatchilar mablag'larining qaysi yo'nalishlarga investitsiya qilinayotganidan bexabar bo'lishi mumkin bo'lsa, islom banklarida mablag'larning harakati shaffof bo'lib, ular to'g'ridan-to'g'ri biznes loyihalariga yo'naltiriladi va olingan foyda bank hamda omonatchi o'rtasida adolatli taqsimlanadi.

Islom moliyasining an'anaviy moliyalashtirish tizimidan farqlanuvchi eng muhim jihati — risklarning teng taqsimlanishidir. Bu esa foyda bilan bir qatorda zararining ham sheriklar o'rtasida adolatli taqsimlanishini anglatadi.

Boshqacha qilib aytganda, islomiy moliyalashtirish hamkorlik va sherikchilik tamoyillariga asoslanadi. Islom banklari mijoz talabi asosida ishlab chiqarish obyekti qurib berishi, asbob-uskunalar, tovar yoki xomashyo sotib olib berishi yoki ularni ijaraga taqdim etishi mumkin. Moliyalashtirish jarayonining markazida savdo-amaliyot munosabatlari turadi va pul vositasi faqat almashinuv hamda hisob-kitob vositasi sifatida talqin etiladi.

Islom moliyasidagi asosiy xizmat turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Murobaha (nasiya savdosiga asoslangan moliyalashtirish) — mikromoliya tashkiloti tomonidan tovarning xarid qiymati va unga qo'shilgan ustama narx bilan birga nasiyaga sotilishi orqali mijozni moliyalashtirish;

- Salam (oldindan to'lovga asoslangan moliyalashtirish) — kelajakda yetkazib beriladigan tovarlar uchun to'lovning mikromoliya tashkiloti tomonidan to'liq miqdorda oldindan amalga oshirilishi orqali mijozni moliyalashtirish;

- Muzoraba (foydani taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish) — mikromoliya tashkiloti tomonidan foyda olish maqsadida mijozning tijorat faoliyatiga mablag' ajratish orqali moliyalashtirish;

- Mushoraka (sharikchilik — foyda va zararlarni taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish) — mikromoliya tashkilotining bir yoki bir nechta ishtirokchi (mijoz) bilan birgalikda tijorat faoliyatini amalga oshirishi yoki yuridik shaxs ustav kapitalida ishtirok etishi orqali moliyalashtirish [4].



Bugungi kunda islom moliyasining eng rivojlangan yo'nalishlaridan biri islomiy banklar hisoblanadi. Ular o'z faoliyatini ikki xil model asosida amalga oshirmoqda:

- islom huquqi me'yorlariga to'liq mos tizim (Pokiston, Sudan, Eron bank tizimlari);
- davlat tomonidan alohida tartibga solinadigan va islomiy banklar an'anaviy banklar bilan bir qatorda faoliyat yuritadigan dualistik tizim (Malayziya, Buyuk Britaniya, AQSh va boshqalar).

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekistonda islom moliyasi instrumentlarini bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Xususan, dastlabki bosqichlarda murobaha va ijara yo'nalishlarini, keyingi bosqichlarda esa sukuk (islomiy qimmatli qog'ozlar) hamda takaful (islomiy sug'urtalash) kabi murakkab instrumentlarni joriy etish tavsiya etiladi. Bu yondashuv bozor ishtirokchilari uchun moslashuv davrini yaratadi hamda potentsial risklarni kamaytiradi.

AAOIFI (Islom moliya institutlari uchun audit va buxgalteriya standartlari tashkiloti) ta'rifiga ko'ra, sukuk — bu nominal qiymati teng bo'lgan, muayyan loyihaning moddiy aktivlari, ko'rsatilayotgan xizmatlar yoki aktivlarga egalik huquqining bo'linmas ulushini tasdiqlovchi sertifikatlaridir.

Sukukning turli moliyaviy tuzilmalari mavjud bo'lib, ularga ijara sukuki, murobaha sukuki, mudoraba sukuki, musharaka sukuki, salam sukuki, istisna sukuki va gibrid sukuk turlari kiradi.

Islom moliyasi bozorida, islomiy banklardan keyingi eng jadal rivojlanayotgan sektor — sukuk qimmatli qog'ozlari hisoblanadi. 2021-yil yakunlariga ko'ra, islom moliyasining global aktivlari yiliga o'rtacha 13 foizlik o'sish bilan 3,374 trillion AQSh dollariga yetgan bo'lib, shundan 767 milliard AQSh dollari amaldagi sukuk bozoriga to'g'ri keladi.

Tahlilchilarning prognozlariga ko'ra, global sukuk bozori 2027-yilga borib, o'rtacha yillik 17 foizlik o'sish bilan 1,98 trillion AQSh dollariga yetadi. Sukuk instrumentlari orqali yirik infratuzilma loyihalari, sanoat korxonalari va biznes tashabbuslarini moliyalashtirish Fors Ko'rfazi davlatlari hamda Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlarida tobora muhim vosita sifatida shakllanib bormoqda [5] (1-jadval).

1-jadval. Islom moliyasi va an'anaviy moliya tizimi o'rtasidagi farqlar

Asosiy jihatlar	An'anaviy moliya	Islom moliyasi
Foiz (ribo)	Foiz moliya tizimining asosiy elementi hisoblanadi. Kreditlar foiz stavkasi asosida beriladi va foiz daromad sifatida shakllanadi.	Foiz qat'iy tanqiqlangan. Moliyaviy daromad savdo, sheriklik, ijara yoki real iqtisodiy faoliyatdan olinadi.
Risk taqsimoti	Riskning asosiy qismi qarz oluvchiga yuklatiladi.	Risk va foyda (zarar) sheriklik tamoyiliga ko'ra adolatli tarzda taqsimlanadi (musharaka, mudaraba).
Aktivlar bilan ta'minlash	Bitimlar real aktivlarga bog'lanmagan bo'lishi mumkin (masalan, derivativlar, spekulativ operatsiyalar).	Har bir bitim real aktiv yoki xizmat bilan bevosita bog'langan bo'lishi shart.
Maqsad va etik tamoyillar	Asosiy maqsad — foydani maksimallashtirish.	Foyda bilan birga ijtimoiy adolat, halollik, barqarorlik va jamiyat farovonligi ko'zlanadi.
Faoliyatning ba'zi jihatlar	Har qanday qonuniy sohada faoliyat yuritish mumkin (jumladan, spirtli ichimlik, tamaki va boshqa sohalar).	Shariatga zid yo'nalishlar — qimor, spirtli ichimlik, tamaki, foizli banklar va cho'chqa mahsulotlari kabi faoliyatlarni moliyalashtirish taqiqlanadi.
Bitimlarning shakli	Moliyaviy vositalar ko'pincha qarzga asoslanadi.	Bitimlar savdo, ijara, sheriklik (mudaraba, musharaka), tovar oldi-sotdisi kabi real iqtisodiy operatsiyalarga asoslanadi.
Spekulyatsiya (maysir) va noaniqlik (g'arar)	Derivativlar va spekulativ savdolarida yuqori darajada uchrashi mumkin.	Haddan tashqari noaniqlik va qimor xususiyatiga ega bitimlar qat'iy tanqiqlanadi.
Nazorat organi	Asosan Markaziy bank va moliya nazorati organlari tomonidan tartibga solinadi.	Markaziy bank bilan bir qatorda Shariat kengashi yoki Shariat nazorati organi tomonidan ham nazorat qilinadi.

O'rganishlar davomida O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirishning bir qator istiqbolli yo'nalishlari aniqlanadi.

Birinchidan, mamlakatda 38 milliondan ortiq aholi istiqomat qilishi hamda ularning aksariyati musulmonlar bo'lgani sababli islomiy moliyaviy mahsulotlarga bo'lgan talab yuqori bo'lishi tabiiy holatdir.

Ikkinchidan, Fors Ko'rfazi mamlakatlari va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlaridan investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari kengaymoqda. Ushbu mintaqalarda islom moliyasi yuksak darajada rivojlangan bo'lib, ularning tajribasi O'zbekiston uchun muhim amaliy yo'nalish vazifasini bajaradi.



Xususan, Malayziyada 1983-yilda “Bank Islam Malaysia” tashkil etilgandan buyon islom moliyasi tizimi izchil rivojlanib, 2025-yilga kelib uning aktivlari 350 milliard AQSh dollariga yetgan. O‘zbekistonda islom moliyasini joriy etishda Malayziya tajribasi ayniqsa samarali bo‘lishi mumkin. Chunki bu mamlakatda an’anaviy va islom bank xizmatlari dual tizim asosida — ortiqcha xarajatlarsiz, bir bank tizimida parallel ravishda, hatto bitta bankomat orqali ikki xil xizmat ko‘rsatish imkoniyati bilan birlashtirilgan. Pul mablag‘lari bitta texnik qutiga tushsa-da, hisob-kitoblar alohida yuritiladi. Bu esa Shariat talablari bajarilishini ta’minlaydi.

Markaziy Osiyo davlatlari ichida Qozog‘iston ham islom moliyasi sohasida sezilarli tajribaga ega. Qozog‘istonning islom bank tizimi mamlakat moliya bozorining 0,2–0,3 foizini qamrab oladi. Hozirda ikki bank islom moliyasi tamoyillariga asoslanib faoliyat yuritmoqda. Aholi omonatlari hajmi 2,8 trillion tengega yetgan.

Birlamchi o‘shir bosqichi 2010-yil mart oyida tashkil etilgan Al Hilol Islom banki bilan bog‘liq bo‘lib, uning 2022-yil yakunlari bo‘yicha aktivlari 60,3 milliard teng (134 million AQSh dollari)ni tashkil etadi. Filiallari Olmaota, Ostona va Chimkent shaharlarida joylashgan.

Ikkinchi islom banki — “Zaman Islamic Bank” 2017-yil avgust oyida faoliyat boshlagan. Bankning 2021-yil yakunlari bo‘yicha aktivlari 23,6 milliard teng (52 million AQSh dollari)ga yetgan bo‘lib, Olmaota, Ostona va Ekibastuz shaharlarida faoliyat yuritadi.

Qozog‘istonda islom moliyasi tizimining shakllanishi uchun muhim huquqiy asos 2009-yil 12-fevralda qabul qilingan “Qozog‘iston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga islom banklari va islom moliya tashkilotlari faoliyatini tashkil etish masalalari bo‘yicha o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun bilan yaratilgan.

Bundan tashqari, 2018-yilda tashkil etilgan “Ostana xalqaro moliya markazi” islom moliyasining mintaqaviy rivojlanishida sezilarli qadam bo‘ldi. Olti yil davomida markazda 3500 dan ziyod tashkilot ro‘yxatdan o‘tgan, 14 milliard AQSh dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya jalb etilgan, iqtisodiyotga 10 mingga yaqin yangi ish o‘rinlari yaratilgan hamda 169 milliard teng miqdorida soliq tushumlari ta’minlangan.

O‘zbekiston sharoitida ushbu ko‘rsatkichlar yanada yuqori bo‘lishi mumkin. Chunki mamlakat aholisi ko‘proq, ichki bozor keng, islomiy moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj ham kuchli.

Shuni alohida ta’kidlash muhimki, islom moliyasi sohasida normativ-huquqiy baza xalqaro standartlarga to‘liq moslashtirilmagan, shuningdek, malakali kadrlar yetishmasligi ayrim cheklovlarni yuzaga keltirmoqda. Bu, ayniqsa, islomiy moliyaviy instrumentlarni baholash, risk-menejment va shariatga muvofiqlikni ta’minlash tizimlarini shakllantirishda seziladi.

O‘rganilgan xalqaro tajribaga tayangan holda aytish mumkinki, Malayziya va Qozog‘iston modellari O‘zbekiston uchun eng maqbul yondashuv sifatida xizmat qilishi mumkin. Xususan, mamlakatda dual banking tizimini joriy etish — an’anaviy va islom bank tizimlarini parallel rivojlantirish — bozor talablari va mijoz ehtiyojlariga moslashuvchan yechim bo‘lib xizmat qiladi.

Islom moliyasi va islom banklari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishdan avval, depozitlarni sug‘urtalash tizimi — takaful tizimini takomillashtirish zarur. An’anaviy tizimda depozitlar davlat sug‘urta fondi tomonidan himoyalansa, islom banklarida bunday tizimning mavjud bo‘lmasligi ayrim mijozlarda ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin.

“Takaful” arab tilida “kafolat, o‘zaro yordam” ma’nolarini anglatadi. U musulmon mijozlar uchun an’anaviy sug‘urtaning halol muqobili bo‘lib, islom moliyasi tamoyillariga mos ravishda tashkil etiladi. Takaful tizimida ishtirokchilar mablag‘larni umumiy jamg‘arma fondiga yo‘naltiradi va ushbu mablag‘lar ishtirokchilarni moliyaviy yo‘qotishlardan himoya qilishga sarflanadi. Mazkur tizim ribo (foiz), maysir (ortiqcha tavakkalchilik) va g‘arar (noaniqlik) kabi taqiqlangan amaliyotlardan xoli bo‘lib, adolat va o‘zaro mas’uliyat tamoyillariga tayanadi.

Shuni ham qayd etish lozimki, tijoriy sug‘urtalash shartnomalarida noaniqlik darajasi (g‘arar) islom moliyasi ruxsat bergan chegaradan oshib ketishi mumkin. Chunki ayrim holatlarda sug‘urtalovchi statistik ma’lumotlarga asoslangan holda moliyaviy natijalarni oldindan prognoz qila olsa-da, sug‘urta qildiruvchi uchun noaniqlik saqlanib qoladi. Bu esa islomiy sug‘urtaning o‘ziga xos mexanizmlarini joriy etish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tavakkalchilik (maysir). Fiqhshunoslarning ta’kidlashicha, g‘arb (an’anaviy) sug‘urta kompaniyalaridagi foydaning shakllanishi ma’lum darajada tasodifiylikka tayanadi. Agar sug‘urta qildiruvchilardan yig‘ilgan jami badallar va ularning investitsiya qilinishidan olingan daromad sug‘urta to‘lovlari hamda operatsion xarajatlardan oshsa, sug‘urtalovchi foyda ko‘radi; aks holda zarar yuzaga keladi. Shu jihati bilan sug‘urta munosabatlari, qisman, sug‘urta hodisasi ro‘y berishiga bog‘liq o‘yinga o‘xshab ketadi.

Masalan, agar sug‘urta hodisasi vujudga kelsa, sug‘urtalovchi “garov”ni yutqazgan hisoblanib, sug‘urta qildiruvchi yoki manfaatdor shaxsga ma’lum miqdorda to‘lov amalga oshiradi. Agar sug‘urta hodisasi ro‘y bermasa, sug‘urta qildiruvchi to‘langan badalni qaytarmaydi. Shu sababli noaniqlik (g‘arar) va maysir unsurlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, sug‘urta shartnomalarida g‘ararning oshib ketishi maysir elementlarining paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.



Ribo. An'anaviy sug'urtalash shartnomalarida sug'urta qildiruvchidan olingan va unga qaytariladigan mablag'lar o'rtasida vaqt farqi mavjud bo'lishi, shuningdek, jamg'arma sug'urtasida sug'urtalovchi tomonidan badallar bo'yicha foizlar to'lanishi, fiqhshunoslar tomonidan ribo alomatlari sifatida talqin qilinadi. Agar to'langan badallar foizli qarz sifatida ko'rilsa, bu islom moliya tamoyillariga zid hisoblanadi.

Islomiy sug'urta (takaful) tizimida esa sug'urta kompaniyasi ishtirokchilar manfaatlarini ko'zlab, mablag'larni ular nomidan muzoraba (shariklik asosida boshqaruv) yoki vakolat (agentlik) shartnomasi orqali boshqaradi. Jamg'arma mablag'lari investitsiyalarga yo'naltirilishi va sug'urta hodisalaridan tashqari ishtirokchilarga qo'shimcha foyda keltirishi mumkin.

Islomiy sug'urtalashning an'anaviy sug'urtalashdan asosiy farqlari quyidagilar:

- takafulishtirokchilari bir vaqtning o'zida sug'urta qildiruvchi va bir-birlarini o'zaro sug'urtalovchi sifatida harakat qiladi; sug'urta kompaniyasi esa faqat agent sifatida faoliyat yuritib, jamg'arma mablag'lariga egalik qilmaydi;
- jamg'arma ishtirokchilarining investitsiya kiritgan mablag'laridan olingan foyda sug'urta kompaniyasi mulki hisoblanmaydi; muzoribning mukofoti ajratilgach, qolgan foyda ishtirokchilar o'rtasida adolatli tarzda taqsimlanadi;
- sug'urta qoplamalari to'langandan keyin jamg'arma balansida qolgan mablag'lar ishtirokchilar o'rtasida ularning hissasiga muvofiq yoki oldindan kelishilgan tartib asosida taqsimlanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, islom moliya va bank tizimini rivojlantirish jarayonida investorlar va omonatchilar mablag'larini himoya qilishda islomiy sug'urtalash — takaful tizimi muhim o'rin egallaydi.

Tahlillar natijasida O'zbekistonda islom banklarini rivojlantirishning ikki asosiy yo'nalishi ajratib ko'rsatildi:

- mamlakatda faoliyat yuritayotgan an'anaviy banklar tarkibida islomiy "oyna/darcha" (window)larni ochish; bu variant nisbatan kam xarajat talab qiladi, biroq islom moliya tamoyillariga to'liq rioya qilish jarayonida ayrim tashkiliy muammolarni eltirib chiqarishi mumkin;

- alohida islom banklarini tashkil etish; bu yo'nalish ko'proq resurs talab qiladi, biroq islomiy moliyaviy amaliyotlarni to'liq va mukammal shaklda amalga oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoiti uchun optimal yondashuv — har ikki modelni parallel rivojlantirish, ya'ni dual banking tizimini shakllantirishdir. Bu yondashuv bozorning turli segmentlarini qamrab olish, raqobat muhitini kuchaytirish va mijozlar ehtiyojlariga moslashuvchan xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda islom moliyasi rivojlanishining SWOT-tahlili

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar	Imkoniyatlar	Tahdidlar
Davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlanishi	Malakali mutaxassis kadrlar yetishmasligi	Xalqaro investitsiyalarni keng jalb qilish imkoniyati	Xalqaro standartlarga moslashuv jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan murakkabliklar
Musulmon aholining yuqori ulushi	Mavjud infratuzilmaning to'liq shakllanmaganligi	Yangi moliyaviy mahsulotlarni joriy etish orqali moliyaviy inklyuziyani oshirish	Raqobatning kuchayishi natijasida bozorning tez o'zgarishi
Mintaqaviy hamkorlik salohiyatining mavjudligi	Huquqiy asoslarning to'liq takomillashmaganligi	Yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy faollikni oshirish	Makroiqtisodiy beqarorlikning moliyaviy tizimga ta'siri
Xorijiy investorlarning qiziqishi yuqoriligi	Aholi va investorlar o'rtasida moliyaviy savodxonlikning yetarli emasligi	Raqobat muhitini yaxshilash va bozorda sog'lom raqobatni shakllantirish	Shariat talablariga to'liq rioya qilinishini ta'minlashdagi muvofiqlik masalalari

Islom moliyasi va bank tizimini rivojlantirish O'zbekiston moliya bozorida bir qator ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Birinchidan, moliyaviy inklyuziyaning oshishi — an'anaviy bank tizimidan foydalanishni istamagan aholining ma'lum qatlami islomiy moliyaviy xizmatlar orqali moliyaviy tizimga jalb etiladi. Diniy e'tiqodi sababli an'anaviy bank xizmatlaridan chetlashayotgan fuqarolar uchun islomiy moliyalashtirish tamoyillariga mos xizmatlarning joriy etilishi iqtisodiy faollikni oshiradi, ichki investitsiya hajmini kengaytiradi va uzoq muddatda makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchidan, raqobat muhitining yaxshilanishi — islom banklarining faoliyat boshlashi moliya bozorida raqobatni kuchaytiradi. Bu esa xizmatlar sifatining oshishiga, narxlar va xizmatlar shartlarining optimallashtirilishiga, innovatsion mahsulotlar paydo bo'lishiga olib keladi. Xalqaro tajribaga ko'ra, dual banking tizimi mavjud bo'lgan mamlakatlarda moliyaviy xizmatlar bozori yanada samarali ishlaydi. Masalan, Buyuk Britaniya, Rossiya va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarda ham islom moliyasi dual banking tizimi orqali muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda.



Uchinchidan, kapital bozorining rivojlanishi — sukuk va boshqa islomiy qimmatli qog'ozlarning muomalaga chiqarilishi kapital bozorining chuqurlashuviga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiyotning moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, investitsiya oqimini oshirish hamda katta loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

To'rtinchidan, xalqaro moliya markazlari bilan integratsiya — islom moliya tizimini rivojlantirish Dubay, Kuala-Lumpur kabi yetakchi islomiy moliya markazlari bilan hamkorlikni faollashtirishga xizmat qiladi. Bu orqali O'zbekistonning xalqaro moliya bozoridagi mavqei mustahkamlanadi, global investitsion oqimlar bilan bog'lanish kuchayadi va xalqaro moliyaviy infratuzilmalar bilan integratsiya jarayoni jadallashadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rinda aytish joizki, O'zbekistonda islomiy moliya tizimini rivojlantirish istiqbollari bo'yicha olib borilgan tahlillar mamlakatning ushbu yo'nalishda katta salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Amaldagi huquqiy asoslar shakllantirilayotgan bo'lsa-da, tizimni to'laqonli joriy etish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Jumladan, me'yoriy-huquqiy bazani xalqaro standartlar, xususan AAOIFI talablari va ilg'or davlatlar tajribasi asosida takomillashtirish, tegishli qonunlarga zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, islomiy moliya mahsulotlarining shariatga muvofiqligini baholaydigan mustaqil Shariat kengashi yoki maxsus litsenziyalovchi organ faoliyatini yo'lga qo'yish zarur bo'lib, mazkur kengash diniy idoralar tarkibidan tashqarida, Markaziy bank yoki tegishli davlat organi huzurida faoliyat yuritishi lozim. Jahon amaliyoti, xususan Malayziya tajribasi, Shariat maslahat kengashlarining mavjudligi islomiy moliya tizimining barqaror rivojlanishi va huquqiy noaniqliklarning kamayishida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Islomiy moliya institutlari uchun buxgalteriya va audit standartlarini ishlab chiquvchi xalqaro tashkilotlar talablari asosida Shariat kengashi barcha moliya muassasalarida majburiy bo'lishi, uning faoliyatini outsorsing orqali bir nechta tashkilotlarga xizmat ko'rsatish shaklida tashkil etish imkoniyati mavjudligi ushbu tizimning moslashuvchanligini ta'minlaydi. Mazkur kengash namunaviy shartnomalar va ichki hujjatlarni tasdiqlash, muvofiqlik bo'yicha hisobotlar tayyorlash, risklarni boshqarish va ichki nazorat tizimini takomillashtirish kabi vazifalarni bajaradi. Bundan tashqari, yirik islomiy moliya markazlari bilan xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro islomiy moliya tashkilotlariga a'zo bo'lish hamda integratsiya jarayonlarini jadallashtirish O'zbekistonda islom moliyasi va banking tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu chora-tadbirlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi islomiy moliya tizimining to'laqonli joriy etilishiga, moliya bozorining diversifikatsiyasiga, moliyaviy inklyuziyaning kengayishiga va mamlakat iqtisodiy o'sishining qo'llab-quvvatlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-dekabr kuni Konstitutsiya qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir" nomli ma'ruzasi. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/3119>
2. Sharipov Sh. O'zbekiston MDHning islomiy moliya markaziga aylanish potensialiga ega — ekspertlar bilan suhbat. Kun.uz portali, 13.06.2025-yil. URL: <https://kun.uz/news/2025/06/13/ozbekiston-mdhning-islomiy-moliya-markaziga-aylanish-potensialiga-ega-ekspertlar-bilan-suhbat>
3. ICD – LSEG. Islamic Finance Development Report 2025. 8-bet. URL: https://www.lseg.com/content/dam/data-analytics/en_us/documents/reports/lseg-islamic-finance-development-indicator-2025.pdf Murojaat qilingan sana: 03.10.2025-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Ro'yxatdan o'tgan sana: 26.07.2024-yil, ro'yxat raqami: 3536. URL: <https://lex.uz/docs/-7036330>
5. Tursunov I. (INCEIF — Islom moliyasi xalqaro universiteti magistranti, islom moliyasi mutaxassisi). "Islom moliyasida sukuk: jahon tajribasi, afzalliklar va imkoniyatlar." Kun.uz portali, 30.07.2022-yil. URL: <https://kun.uz/news/2022/07/30/islom-moliyasida-sukuk-jahon-tajribasi-afzalliklar-va-imkoniyatlar>
6. Sharipov Sh. O'zbekiston MDHning islomiy moliya markaziga aylanish potensialiga ega — ekspertlar bilan suhbat. Kun.uz portali, 13.06.2025-yil. URL: <https://kun.uz/news/2025/06/13/ozbekiston-mdhning-islomiy-moliya-markaziga-aylanish-potensialiga-ega-ekspertlar-bilan-suhbat>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
